

ILMIY BOZOR MUNOSABATLARIGA TEGISHLI TAJRIBALAR (OLIMLARNING IZLANISHLARI)

Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich

Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17207512>

Ilmiy bozor munosabatlariga tegishli tajribalar kapitalistik bozor tuzilmasini taraqqiy etgan davlatlarning iqtisodiy hukmronligi to'g'risidagi farazlarni ilgari surdilar. Zotan, ushbu muammolar zamonaviy kapitalizm soyasi ostidagi katta iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik ta'sirlarning yig'indisi sifatida amal qildi. XX asr ohirlarida AQSHda bozor madaniyati rivoji tovarlarning yoki mahsulotlarning sifat va miqdor o'zgarishlarini nisbatan yuqori darajaga ko'tarilishiga erishildi. Zotan, iqtisodiy ishlab chiqarishning hajm va ko'lami mehnat munosabatlar bozorida "talab va taklif nisbat barqarorligi" tarafdorlari ish strukturasida ustuvorlikka ega bo'ldi (misol uchun D.Gilder, A.Laffer, D.Vaniski kabi).

Boshqaruv tizimi bozor munosabatlarini o'zlarining oqimiga moslashtirish ya'ni ma'naviy manfaatdorlikni o'z qo'llariga olish maqsadida ishsizlar va ularning manfaatlarini suistemol qilgan holda murakkab vaziyatlar mehnatga layoqatsiz, tajribasiz, jismoniy jihatdan zaif va ishyoqmas shaxslarning yig'indisi natijasi ekanligini ta'kidladilar hamda ushbu murakkabliklarni o'z zimmalaridan soqit etdilar. Yuqoridagilardan xulosa qilgan holda, ishsizlik xususan tabiiy va ixtiyoriy holatda turkumlanadi:

- a) ishsizlik va uning talqini shaxslarning xatti-harakatlari zahirida moddiylashadi;
- b) ishsizlik moddiy ta'minot va ish haqqining spiralsimon darajasi va uning "dinamik o'zgaruvchanligi" bilan izohlanadi.

Tashqi bozor munosabatlariga bo'ysunuvchan import va eksport faoliyati natijalari o'laroq, ishchilar ish haqi stavkasi va uning mehnat tannarxi ortishi jarayoni mazkur ishlab chiqarish korxonasi mahsulotlari narxidan nisbatan ortib ketishi, tashkilot sarmoyasining pasayishi evaziga yuz beradi. Bu hodisa kasaba uyushmalari o'z a'zolari mehnati evaziga qo'shimcha rag'batlantirishlar, ya'ni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash (mukofot, ijtimoiy yordam puli, sihatgohlar uchun yo'llanma va bayram ustamolari) tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv "o'z vaqtida inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ifodalovchi Fillips egri chizig'ining nazariy asosini shakllantirdi va u 1861-1958 yillar oralig'idagi Angliyaga oid statistik ma'lumotlarga asoslangan"¹.

P.Heine "ishga olish yoki ishdan bo'shatish bo'yicha muayyan qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq foyda va xarajatlarni taqqoslash sifatida belgilaydi. Turli odamlar uchun ular individualdir va malaka, tajriba, yosh, yaqinlariga bo'lgan sadoqat, o'zining va boshqalarning qadriyatlar kabi omillar bilan belgilanadi. Ishga borish qarori, agar odamlar o'zlari uchun munosib joy topishni kutsalar, amalga oshiriladi, ammo umidlar asossiz yuqori bo'lsa, bu ishsizlikka olib keladi"², deya ta'kidlaydi.

Muayyan iqtisodiy faoliyat egalari ishsizlikni mehnat bozori uchun doimiy raqobatni yaratib beruvchi ijobiy holat sifatida ham izohlaydilar. Zero, bunday munosabat talab va taklif oralig'ida nomutanosiblik darajasini belgilab berishini izohlaydilar. Olimlar R.Ehrenberg va

¹ McConnell K.R., Brew S.L. Указ.Соч . стр.206.

² Куприенко Л.П. Влияние уровня жизни на распределение трудовых ресурсов. М.: Наука, 1976. С.120.

R.Smit ishsizlarni “mehnat bozorining mavjud talablariga ega bo’lgan, ammo haq olish uchun ishi bo’lmagan shaxslar”³ deb tushuntiradi. Bandligi ta’minlanmagan, ish turlarini izlamayotgan, ish beruvchilarga shaxsiy muammolari tufayli murojaat etmaydigan ishchi kuchi ishsizlar tarkibini hosil qilmaydi. Misol uchun, olimlar K.McConnell va S.Brew “ishsizlikning alohida turlarini ko’rib chiqadilar, ammo bu ijtimoiy-iqtisodiy hodisaning mohiyati konsepsiyasining umumiy ta’rifidan uzoqlashadilar”⁴.

Quyidagi tadqiqot natijalariga ko’ra “ishsizlik bozor iqtisodiyoti hukmron bo’lgan jamiyatga xos bo’lgan murakkab, ko’p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo’lib, mehnatga layoqatli aholining tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda ishsiz bo’lgan qismi mehnat bozorida o’z mehnat resurslarini amalga oshirolmasligi ta’kidlanadi”⁵. Boshqa tadqiqotchilar esa “ishsizlikni faqat fuqaroning o’ziga bog’liq bo’lmagan holatlar tufayli ish topish imkoniga ega bo’lmagan holat sifatida ko’rishadi. Ishsizlikni iqtisodiy faol aholining bir qismi mehnatga bo’lgan talabga nisbatan ortiqcha bo’lib qolgan hodisa sifatida qaraydilar, ya’ni zahiradagi mehnat armiyasi sifatida talqin etadilar”⁶.

Bir guruh olimlar, “bozor iqtisodiyotida daromadi bo’lmagan va o’z mehnat qobiliyatini pul evaziga sotish uchun taklif qiladigan ish qidirayotgan odamlarning katta massasi mavjudligi haqida, korxonalar (firmalar) o’rtasida harakatlanish va uning muqarrar tarkibiy qismi sifatida ochiq (aylanma) mehnat bozorining asosiy qismini tashkil etadi”⁷ deb ta’riflaydi. Ayrim izlanivchilar: “Ishsizlik, qisqacha ta’rifda, mamlakatning mehnatga layoqatli va ishlashga tayyor aholisining ma’lum, katta yoki kichik qismining har qanday vaqtda iqtisodiy sabablarga ko’ra bandligining yo’qligidir”⁸, deb ta’riflaydi.

Akademik Q.X.Abdurahmonov ta’kidlashicha, “Inson kapitali – bu iqtisodiy rivojlanishning intensiv ishlab chiqarish omili, jamiyat va oilani rivojlantirish, mehnat resurslarining bilimli qismi, boshqaruv mehnati, yashash va ish joyi muhitidir”⁹.

Tadqiqotchi S.Qurbonov esa bandlik masalasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Bandlik – qaramog’ida bir va undan ortiq shaxslar bo’lgan, o’zi hamda qaramog’idagilarning har biri uchun belgilangan kambag’allik chegarasidan yuqori darajadagi iste’moli uchun yetarli daromad keltiradigan mehnat faoliyatidir”¹⁰.

Shu bilan bir qatorda bugungi kunda dunyo aholisi turmushda, mehnat, muloqot jarayonlarida raqamli iqtisodiyotning ta’sirida hayot kechirmoqda. Bu o’zgarishlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi doirasida yuz berib, yangi imkoniyatlar yaratib berayotga raqamli texnologiyalar natijasida ular tashqi olamga sezilarli ta’sir qilmoqda. Misol uchun, zamonaviy texnologiyalarning ko’rinishi bo’lgan sun’iy intellektdan foydalangan holda “Smart city”, “Magic school” dasturi, “Smart home”, “Innovatsion Tashkent city” kabi loyihalar

³ Erenberg R.J. Smit P.C. Modern labor economy. -M.: MSU, 1996. P.346.

⁴ Makonnell K.P. Brew S.L. “Labor economy”. US, 199. P.125.

⁵ Занятость. Безработница. Служба занятости. Толковый словарь терминов и понятий/ под.ред. Ю.В.Коленикова. -М.. 1996. С.21.

⁶ Исанова В.Н., Безденежных Т.Н. Управление занятостью населения на местном уровне. -М., 2002. - С.101.

⁷ В.А.Павленков. Рынок труда. Занятость. Безработница. -М.: Изд-вою МГУ. 2004. Стр.62.

⁸ В.И.Плакся. Безработница: теория и современная российская практика социально-экономический аспект.-М.: Изд-во.Парс, 2005.С.27.

⁹ Abdurahmonov Q.X. “Inson taraqqiyoti”. Darslik.T.:Iqtisodiyot, 2016. B.542.

¹⁰ Курбонов С. Унумли бандлик тақчиллиги даражасини баҳолашнинг камбағалликни қисқартиришдаги зарурати // “IQTISODIYOT VA TURIZM” xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali №2(10) 2023, 125-135 betlar

amalgam oshirildi va hozirda ham shunday. Biroq, bu tendensiyalar inson qobiliyati orasidagi tafovutni kamaytirmoqda, tenglashtirmoqda, ayrim sohalarda esa o'zib ham ketmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari faqat sanoat ishlab chiqarish jarayonlarida emas, balki mehnat bozorini ham jiddiy holatga keltirmoqda. Mutahassis ekspertlar tadqiqotlari natijasiga asosan, "2024-yilda robotlashtirish natijasida 80 million ish joyi qisqartirilgan"¹¹.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. McConnell K.R., Brew S.L. Указ.Соч . стр.206.
2. Куприенко Л.П. Влияние уровня жизни на распределение трудовых ресурсов. М.: Наука, 1976. С.120.
3. Erenberg R.J. Smit P.C. Modern labor economy. -М.: MSU, 1996. P.346.
4. Makkonnel KP Brew S.L. "Labor economy". US, 199. P.125.
5. Занятость. Безработница. Служба занятости. Толковый словарь терминов и понятий/ под.ред. Ю.В.Коленикова. -М.. 1996. С.21.
6. Исанова В.Н., Безденежных Т.Н. Управление занятостью населения на местном уровне. -М., 2002. - С.101.
7. В.А.Павленков. Рынок труда. Занятость. Безработница. -М.: Изт-вою МГУ. 2004. Стр.62.
8. В.И.Плакса. Безработница: теория и современная российкая практика социально-экономический аспект.-М.: Изд-во.Парс, 2005.С.27.
9. Abdurahmonov Q.X. "Inson taraqqiyoti". Darslik.T.:Iqtisodiyot, 2016. B.542.
10. Қурбонов С. Унумли бандлик тақчиллиги даражасини баҳолашнинг камбағалликни қисқартиришдаги зарурати // "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali №2(10) 2023, 125-135 бетлар

¹¹ Abdutaxmonov K.X. DEVELOPMENT OF THE LABOR MARKET IN THE TRANSFORMATION ECONOMY BASED ON THE TOOL OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE. "Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali" ilmiy elektron jurnali, 2023 y. № 2. B. 6-7.